TURIZMDA REKREATSIYA OBYEKTLARINING SALOHIYATI VA ULARDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI (BUXORO VILOYATI).

Urunova Dilobar Baxtiyorovna
Buxoro Davlat Universiteti,
Turizm (faoliyat turlari) yo‘nalishi magistranti
E-mail: dilobar07urunova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22861434

Annotatsiya. Turistik faoliyatning rekreatsiya yo‘nalishi jahon bozorida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sayyohlar orasida sog‘lomlashtirish, psixologik tiklanish va hordiq chiqarishga bo‘lgan talabning oshib borishi rekreatsiya xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni ham kuchaytirmoqda. Shu boisdan ham ushbu obyektlar nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy resurs sifatida ko‘rib chiqilmoqda.Mazkur maqolada Buxoro viloyatidagi mavjud turistik-rekreatsion obyektlarning salohiyati o‘rganilib, ularning hozirgi kunda qanchasidan foydalaniyotganligi tahlil qilinadi.
Kalit so’zlar. Rekreatsiya obyektlari, sihatgoh, sog’lomlashtirish, sanatoriya, davolash, dam olish, mavsumiy.

Ushbu maqolada quyidagi ishlar muhokama qilinadi:

- Buxoro viloyatida mavjud rekreatsiya obyektlarining ro‘yxatini keltirish kerak;
- Salohiyatini (potentsialini) aniqlash uchun ulardagi qabul qilish sig‘imini, shart-sharoitlarini, xizmat turlarini aniqlash lozim.
- So‘ng, ulardan foydalanish darajasini baholovchi mezonlar asosida tahlil qilinadi:

- Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi turistlar statistikasi keltiriladi;
- Joylashuv obyektlari soni va shulardan qanchasi sanatoriya, dam olish uylarini tashkil qilishi aniqlanadi;
- foydalanish mavsumiyligi.

- Sabablar aniqlanadi va xulosa qilinadi.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda, xususan Buxoro viloyatida ham turizm sohasini rivojlantirishda rekreatsiya obyektlarining ulkan salohiyati mavjud. Bu yerda mavjud bo‘lgan tarixiy obidalar, issiq iqlimli hududlar, madaniy meros joylari va tabiiy dam olish maskanlari ichki va tashqi sayyohlarni jalb etishga xizmat qilmoqda. Ammo bu obyektlardan foydalanish darajasi va ulardan olinayotgan iqtisodiy samaradorlik hali ham mavjud imkoniyatlarga nisbatan to‘liq ro‘yobga chiqarilmagan. Bu esa o’z navbatida rekreatsiya obyektlarining salohiyati, ulardan samarali foydalanish darajasini, imkoniyatlarini va undan to’liq foydalanish uchun yuzaga keladigan kamchiliklar, to’siqlarni aniqlash kerakligiga olib keladi. Shu munosabat bilan viloyatda mavjud rekreatsiya obyektlarini o’rganib chiqish maqsadga muvofiq deb topildi. Quyida Buxoro viloyatidagi rekreatsiya-sog‘lomlashtirish markazlarining qabul qilish ko’lami va 2024- yil mobaynida tashrif buyurgan mehmonlar ro‘yxati bilan tanishib chiqiladi:

T/R	Sihatgoh nomi	Qabul qilish sig’imi.
1	“Sitorai Moxi Xosa” sanatariyasi	400-o’rinli
2	Mohi-Xosa Buxoro viloyati bolalar silga qarshi sanatoriyasi	-

3	Buxoro viloyat silga qarshi kattalar sanatoriyasi	-
4	“Jo‘yzar” sanatoriyasi	100- o’rinli
5	“Issiq suv” sanatoriyasi	-
6	“Bukhara Desert Oasis & SPA”	60 kishi

So’ngra, ularning joylashuvi, ixtisosligi va 2024-yilda tashrif buyurgan mehmonlar tahlil qilinadi.

T/R	Sihatgoh nomi	Joylashuvi	Ixtisosligi	Tashrif buyurganlar soni (2024)
1	“Sitorai Moxi Xosa” sanatoriyasi	Buxoro shahar	iqlimiy va balneologik	7000
2	Mohi-Xosa Buxoro viloyati bolalar silga qarshi sanatoriyasi	Buxoro shahar	Bolalarda sil kasalligini oldini olish	764
3	Buxoro viloyat silga qarshi kattalar sanatoriyasi	Shofirkon tumani	Kattalarda sil kasalligini oldini olish	360
4	“Jo‘yzar” sanatoriyasi	Buxoro tuman	Kardiologik, nevrologik, terapevtik kasalliklar uchun	1000
5	“Issiq suv” sanatoriyasi	Buxoro tuman	✓ Tana harakati (oporno-dvigatel) tizimi kasalliklari ✓ Siydik-tanosil tizimi kasalliklari	3500
6	“Bukhara Desert Oasis & SPA”	Romitan tumani	Balneologik kurort	300

2.1.- rasm. Buxoro viloyatidagi mavjud sanatoriy-kurortlar ro‘yxati.[1]

2024-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro viloyatidagi sanatoriyalardan eng ko‘p tashrif buyurilgan maskan “Sitorai Moxi Xosa” bo‘lib, yil davomida 7000 nafar mehmon qabul qilgan. Undan keyingi o‘rinda 3500 nafar tashrifchi bilan “Issiq suv” sanatoriyasi turadi. Aholi orasida eng ko‘p talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar — balneologik, iqlimiy va umumiy sog‘lomlashtirish xizmatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Silga qarshi ixtisoslashgan sanatoriyalar esa ancha kam sonli tashrifchilarga xizmat ko‘rsatgan. Bu esa tibbiy ehtiyoj va ixtisosliklar doirasiga bog‘liq. Umuman olganda, rekreatsiya obyektlaridan foydalanish darajasi turli bo‘lib, bu ularning joylashuvi, ixtisosligi va ommabopligiga bevosita bog‘liq.

Ushbu sanatoriya-kurortlar hozirda ixtisosligiga va maqsadiga ko‘ra turlicha ko‘rsatkichlarda mehmonlarni qabul qilishsa ham, ularning imkoniyat darajalarini aniqlash va yangi loyihalar uchun qo‘shimcha investitsiya kiritish orqali bu ko‘lamni yanada oshirish mumkin. Ularning imkoniyat darajasini o‘rganish mobaynida qulayliklari, shart- sharoitlari va joylashuvi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] Muallif ishlanmasi.

“Sitorai Moxi Xosa” sanatoriyasi Buxoro viloyatining iqlimiy va balneologik sharoitlari bilan ajralib turuvchi, davolovchi va rekreatsion xizmatlarni birlashtirgan muhim sog‘lomlashtirish maskanidir. Sanatoriya Buxoro shahrining sharqiy qismida, tarixiy “Moxi Xosa” dahasida, dengiz sathidan 500 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, o‘z faoliyatini Buxoro amirining sobiq qarorgohi joylashgan hududda olib boradi.

Sanatoriyada tabiiy sharoitlardan keng foydalaniladi, xususan, davolashda iqlim omillari va sulfat-xlorid-natriyli mineral suvlar muhim o‘rin tutadi. Bu suvlar ichki a'zolar, asab tizimi, yurak-qon tomir kasalliklari va bo‘g‘imlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yotoqxona quvvati: Sanatoriya 400 o‘ringa mo‘ljallangan olti qavatli yotoqxona binosiga ega.[2]

Dam olish imkoniyatlari: Sanatoriya bir va ikki o‘rinli shinam xonalar, oshxona, klub, sport maydonchalari, kutubxona, muzey, basseyn va sauna kabi imkoniyatlarga ega.

Asosiy davolovchi va rekreatsion xizmatlar:

- Fizioterapiya va lazeroterapiya;
- Balchiq bilan davolash (peloidoterapiya);
- Davolovchi jismoniy tarbiya va massaj;
- Fitobar va parhezli ovqatlanish;
- Diagnostika va davolash bo‘limlari;
- Suv muolajalari (basseyn, sauna);
- Madaniy-ma‘rifiy xizmatlar (kutubxona, muzey, klub);
- Sport maydonchalari.

Sanatoriyada yotoqxona binosi bir va ikki o‘rinli zamonaviy xonalardan iborat bo‘lib, har bir xona barcha zarur qulayliklar bilan jihozlangan.

“Issiq Suv” sanatoriyasi faoliyati tahlili. Mazkur sanatoriya Buxoro viloyatida joylashgan bo‘lib, hududiy sog‘lomlashtirish, davolash va rekreatsiya markazi sifatida faoliyat yuritadi. Sanatoriya zamonaviy sharoitlarga ega bo‘lib, keng ko‘lamli davolash va profilaktika xizmatlarini taqdim etadi.

U bevosita tabiiy manbalar (issiq suvlar, iqlimiy omillar) asosida muolajalar olib boradi.

Sanatoriya quyidagi tibbiy yo‘nalishlarda ixtisoslashgan:

- Tana harakati (oporno-dvigatel) tizimi kasalliklari
- Siydik-tanosil tizimi kasalliklari
- Asab tizimi kasalliklari
- Moddalar almashinuvi buzilishlari
- Nafas olish organlari kasalliklari
- Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari
- Me‘da-ichak tizimi muammolari
- Endokrin tizim kasalliklari
- Allergik kasalliklar
- Umumiy terapiya
- Ginekologik muolajalar
- Urologiya

Sanatoriyada bemor va mehmonlar uchun qulay yashash sharoitlari mavjud:

- Konditsioner
- Sovutgich va mini-bar
- Oshxona yoki oshxona burchagi
- Choy/ qahva uchun jihozlar

[2] https://m.kun.uz/news/2016/06/13/buhoroda-sitorai-moi-hosa-sanatorijsi-fojdalanisga-topsirildi?utm_source=chatgpt.com

- Televizor
- Kir yuvish mashinasi
- Kundalik tozalash xizmati

Sanatoriyada xizmat ko‘rsatish va ovqatlanish quyidagicha tashkil etilgan:

- Karta orqali to‘lov imkoniyati
- Umumiy oshxona
- Kafe, restoran va nonushta xizmatlari
- Tibbiy punkt (shifokor va dorixona mavjud)

Sog‘lomlashtirish va rekreatsiya xizmatlari

- Massaj xonasi
- Sauna va hammom (banya)
- Jakuzi
- Solyariy
- Sog‘lomlashtirish markazi
- Fitnes zal
- Dam olish va piknik maydonchasi

Qo‘shimcha xizmatlar va qulayliklar

- Wi-Fi internet
- 5 yulduzli xizmat darajasi
- To‘lov shakllari: naqd, karta orqali, oldindan to‘lov, onlayn to‘lov
- Imtiyozli toifalar uchun chegirmalar

Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sharoitlar

- Nogironlar aravachasi bilan kirish imkoniyati
- Maxsus panduslar va nogironlar uchun to‘xtash joylari

Navbatdagi maskan, Buxoro viloyatining Qizilqum cho‘li hududida joylashgan yangi turistik klaster — “Bukhara Desert Oasis & SPA” dam olish maskani — viloyatning umumiy turizm salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur hudud tarixan aholi zich yashagan voha bo‘lib, bu yerda Zarafshon daryosi qadimda oqib o‘tgan. Hozirgi kunda Xo‘ja-Ubbon qishlog‘i atrofidagi Xo‘jako‘l, Xo‘ja Parsoyak, Xo‘ja Zaffaron, Qizilqir, Qorovultepa, Bo‘rontepa, Shoyusuftepa, Subbokutepa kabi arxeologik obidalar joylashgan bo‘lib, ushbu hudud qadimda “Minglab shahar” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Ularning tarixi milodiy VII asrlarga borib taqaladi.

Aynan ushbu tarixiy manzaraga boy hududda, Romitan tumanining Varaxsha massivida qadimiy Bo‘rontepa arxeologik yodgorligi yaqinida “Bukhara Desert Oasis & SPA” ekoturizm maskani tashkil etilgan. Ushbu obyekt 2020-yil mart oyidan boshlab faoliyat ko‘rsatmoqda. Turistik zona 8 gektar maydonda joylashgan bo‘lib, u turli turizm yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan kompleks turizm klasteri sifatida shakllantirilgan.

Turizm obyektida mehmonlarni qabul qilish, joylashtirish, ovqatlantirish va tashish kabi xizmatlarni taqdim etuvchi infratuzilma mavjud. Jumladan, dam olish maskanida 18 ta milliy uslubdagi yurtalar qurilgan bo‘lib, ularda bir vaqtning o‘zida 60 nafardan ortiq mehmonni joylashtirish imkoniyati mavjud.[3] Har bir yurta zamonaviy qulayliklar — issiq-sovuq suv, konditsioner, dush, sanuzel, xavfsizlik seyfi, muzlatgich, sandallar va boshqa zarur infratuzilma bilan ta‘minlangan. Shu bilan birga, yurtalarda zamonaviy “issiq pol” texnologiyasi o‘rnatilgan bo‘lib, obyekt yilning barcha fasllarida faoliyat yuritishga mo‘ljallangan. Yurtalarning ichki qismi o‘zbek milliy urf-odatlariga mos ravishda bezatilgan.

Mazkur ekoturizm maskani yiliga 24 ming xorijiy va 270 ming mahalliy sayyohni qabul qilish salohiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, hozircha bu ko‘rsatkichlarga to‘liq erishilmagan.

[3] 1- ilova.

Biroq, yildan-yilga tashrif buyuruvchilar soni ortib bormoqda. Bugungi kunga kelib, obyektda 50 dan ortiq doimiy ish o‘rni yaratilgan bo‘lib, mavsumiy davrlarda bu ko‘rsatkich 70 nafargacha yetadi. Shuningdek, obyektda 30 dan ortiq turistik xizmat turlari yo‘lga qo‘yilgan.

“Bukhara Desert Oasis & SPA” dam olish maskanida quyidagi turistik yo‘nalishlar faoliyat yuritmoqda:

- Festival va shou dasturlari (Romitan tumani madaniyat markazi bilan hamkorlikda);
- Gastronomik turizm (ovqat pishirish bo‘yicha master-klasslar);
- Ekologik turizm;
- Rekreatsion SPA xizmatlari;
- Tuyada va otlarda sahro bo‘ylab sayohatlar;
- Safari (kvadratsikllarda sarguzashtli safar);
- Parashyutda va vertolyotda sayohatlar (buyurtma asosida);
- Katamaran va lodkalarda sayr qilish;
- Plyaj turizmi;
- Barlar, kafe va milliy restoranlar xizmati.

Umuman olganda, “Bukhara Desert Oasis & SPA” MChJ tomonidan shakllantirilgan mazkur ekoturistik klaster Buxoro viloyatining rekreatsion salohiyatini amaliyotda ro‘yobga chiqarishda, aholi bandligini ta‘minlashda va turistik xizmatlar turini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Bukhara Desert Oasis & SPA” MChJning rekreatsion sog‘lomlashtirish markazi oldida katta Sardoba havzasi mavjud bo‘lib[4], Buyuk Ipak Yo‘li karvonlari uchun dam olish markazlaridan biri hisoblangan. Sardoba hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Hozirda undan plyaj turizmi sifatida foydalanilmoqda. U yerda Dubaydan keltirilgan oq qumlar, lejak-kreslolar, katomaran va lodkalar kabi jihozlar plyaj turizmining faoliyat yuritishi uchun qulayliklar bilan ta‘minlangan.

Sardobaning yon tomonida rekreatsion sog‘lomlashtirish markazi qurilgan bo‘lib, u umumiy 14 ta yirik besedka shaklidagi xonalarda yo‘lga qo‘yiladi.[5] Ushbu ochiq osmon ostidagi xonalarda[6]

- basseyn
- qumli vannalar
- fizioterapiya
- massaj
- loy (gil) terapiyasi
- oddiy hammom
- turk va fin hammomlari kabi qulayliklarga ega. Oilaviy bir necha soatga ijaraga olsa bo‘ladigan sharoitlar ham qurilgan. Bunda har bir besedka xonalarda ovqat tayyorlash va ovqatlanish uchun o‘choq boshi va so‘rilar ham o‘rnatib qo‘yilgan.

“Bukhara Desert Oasis & SPA” rekreatsion sog‘lomlashtirish markazidagi qumlar Olot tumanidan keltirilgan.

Finlyandiyada sauna madaniyat va milliy an‘analarning ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun uy qurilishi sauna bilan boshlanadi. Birinchi saunalar bir vaqtning o‘zida yashash joyi va hammom sifatida ishlatilgan. Mamlakatdagi iqlim sharoiti haftasiga kamida ikki marta saunaga tez-tez tashrif buyurishni rag‘batlantiradi. Finlar u yerda do‘stlar, oilaviy bayramlar va ba‘zan korporativ tadbirlar bilan vaqt o‘tkazishadi.

[4] 2- ilova.
[5] 3- ilova.
[6] 4- ilova.

Qattiq iqlim sharoitida past namlik va “quruq” havo sharoitlari ayniqsa mos keladi - kerakli effektni yaratadigan saunaning xarakterli xususiyatlari. Ichki harorat 100 darajaga yetishi mumkin. Fin saunasida mumkin bo‘lgan eng past havo namligi bor, faqat 20%. Bunday sharoitda quruq bug‘ hosil bo‘ladi. Devor va pollar past saunada tabiiy materiallardan tayyorlangan, bir nechta skameykalar ham ishlatiladi va termostat ichidagi haroratni tartibga soladi. Yuqori harorat va past namlikning kombinatsiyasi tezroq terlash imkonini beradi: zararli moddalar ter bilan yaxshi chiqariladi. Issiqlikdan so‘ng, sovuqlar sonini kamaytirish uchun tanani qattiqlashtirish juda muhimdir. Albatta, siz protseduralarni oqilona bajarishingiz kerak, siz ko‘p sonli bug‘lash seanslarini qilmasligingiz kerak.

Kam namlik bilan yuqori harorat odamlar tomonidan osonlikcha toqat qiladi, immunitet va asab tizimiga foyda keltiradi. Sauna ish faoliyatini yaxshilaydi, dam olish va kuchni tiklashga yordam beradi. Saunadan keyin energiya qaytadi. Saunaning tanaga ta'siri rus hammomiga o‘xshaydi. Biroq, rus hammomidan farqli o‘laroq, past namlik tufayli namlik tezda teridan bug‘lanib, tananing haddan tashqari qizib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Jarayonning tabiiy davomi tanani hovuzda, muz teshigida yoki muzli suvli vanna yordamida sovutishdir. Sovutish turi insonning sog‘lig‘iga bog‘liq - har qanday kasalliklar mavjudligida sog‘likka zarar bermaslik uchun Fin saunasiga tashrif buyurishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.[7]

Turk hamommi boshqa turdagi bug‘ xonalariga nisbatan yuqori namlik va ayni paytda past haroratni birlashtirgan noyob turdagi vannadir. Bu poklik, dam olish, yoqimli dam olish, suhbatlar va go‘zallik va salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi turli xil protseduralar uchun joy.

Hammomdagi havo harorati 55 darajadan oshmaydi, shuning uchun bu bug‘xonasi issiqlikka yaxshi toqat qilmaydiganlar uchun juda mos keladi. Xonadagi havo nafaqat isiydi, balki shiftdan tashqari barcha sirtlarni ham isitadi.

Hammomdagi shift gumbaz shaklida. Bu shunday namlikda muqarrar bo‘lgan kondensatsiya tomchilab ketmasligi, balki tashrif buyuruvchilarni bezovta qilmasdan devorlardan oqib o‘tishi uchun kerak.[8]

Turistik- rekreatsion markazida salomatlik burchagi qo’yilgan bo’lib, ular asosan qanday shifo turlaridan foydalanishlari yozilgan.[9] Quyidagi xizmatlar turlari asosan amalga oshiriladi:

- Tibbiyot vrachi ko‘rigidan o‘tish;
- Dush qabul qilish;
- Basseynda cho‘milish;
- Glina-loy bilan bilan davolanish;
- Tuz bilan davolanish;
- Qum bilan davolanish;
- Quyosh nuri bilan davolanish.

Ushbu davolanish turlarini mijozlarning tibbiy holatidan kelib chiqib, shu yerda faoliyat yuritadigan vrach-fizioterapevtlar mos davolanish usulini tavsiya etishadi, vaqtini belgilashadi va nazorat qilishadi. Davolanish kurslari mavsum paytlarida (21 iyundan-21 iyulgacha) amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan xizmat turlaridan quyidagi kasallik turlari uchun foydalari mavjud:

- Ostrexondroz;
- Disk churrasi;
- Shamollash;

[7] https://horseka.ru/media/finskaya-sauna/
[8] https://www.hamam-m.ru/news/vse-o-hamame/hamam-idealnaya-tureckaya-banya-ot-a-do-ya.html
[9] 5-ilova.

- Allergik jarohatlarni yo‘qotish;
- Charchoqni chiqarish;
- Asab tizimini davolash;
- Bo‘g‘im kasalliklari;
- Nafas olish tizimini davolash va boshqalar.

Markazning asosiy davolash vositalari bo‘lmish qum, tuz va gil- loyning xalq tabobatida ham foydalari juda yuqoriligi amalda sinalgan.

Natijalar.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanib, ushbu hududning iqtisodiy daromadini hisoblab chiqdik, u quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Xizmat turi	Narxi (so‘m)	Foydalanuvchilar soni (yiliga)	Yillik daromadi (so‘m)
Gil bilan davolash	50 000	100	5 000 000
Tuzli vannalar	50 000	100	5 000 000
Quvvatlantiruvchi massaj	50 000	150	7 500 000
Qumli vanna	50 000	100	5 000 000
Fitosauna / parli muolajalar	50 000	80	4 000 000
Fin saunasi (10 daq.)	50 000	120	7 000 000
Turk hammomi (20 daq.)	50 000	100	5 000 000
Jami:	-	750	38 500 000

2.2-rasm. “Bukhara Desert Oasis & SPA” turistik klasteriga tegishli SPA zonasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari.[10]

Mazkur jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib ikki oylik mavsumiy ishlaydigan SPA zonasi o‘zidan 38 500 000 so‘m daromad qoldiradi. Bundan albatta, xarajatlarni ayirsa sof foydaning miqdori yana ham kamayadi. Biroq, bu hisob-kitob ikki oylik mavsum uchun ekanligini ham inobatga olish lozim.

Xulosa. Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi turistik-rekreatsion obyektlarning salohiyati va ulardan foydalanish darajasi tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, viloyat hududida mavjud bo‘lgan sanatoriyalar va rekreatsion maskanlar (jumladan, “Sitorai Moxi Xosa”, “Issiq Suv” sanatoriyasi, “Bukhara Desert Oasis & SPA” dam olish maskani) o‘ziga xos tabiiy, iqlimiy va tarixiy imkoniyatlarga ega. Ularning xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari keng bo‘lib, sog‘lomlashtirish, madaniy hordiq va ekologik turizm yo‘nalishlarida faoliyat yuritmoqda.

Shunga qaramay, mavjud obyektlardan foydalanish samaradorligi hali to‘liq darajada emas, mavjud salohiyat to‘la ro‘yobga chiqarilmagan. Ayrim obyektlarda infratuzilma, xizmat sifati va investitsiyalarning yetishmasligi kuzatiladi. Shu bois, rekreatsion obyektlarga qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilish, ularning xizmat doirasini kengaytirish va marketing faoliyatini kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Bu esa nafaqat turizm rivojiga, balki aholi bandligi va mintaqa iqtisodiyotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

[10] Muallif tomonidan ishlangan.

Ilovalar.

1.Yurta tashqi tomoni va ichi:





2. Sardoba havzasi.





3. Rekreatsion hudud besedkalari.





4. Besedkalar ichi: jakuzi vannalar, qumli vannalar, massaj stoli.



1.Basseyn va o’choq (taom tayyorlash uchun)

2. Massaj stoli.





3. Jakuzi vannalar.



4.Qumli vannalar



5. Hammom.

5. Salomatlik burchagi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Turaev, B., Atamurodov, U., & Shodiyev, K. (2023). To Increase the Potential of the Regional Tourism Industry and the Productivity of its Use. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, *4*(6), 26-32.
2. Ushakova, E. O., & Tsoy, M. Y. (n.d.). Methods for Assessing the Tourist and Recreational Potential of the Territory. *Advances in Economics, Business and Management Research*, *128*, 2636.
3. https://m.kun.uz/news/2016/06/13/buhoroda-sitorai-moi-hosa-sanatorijsi-fojdalanisga-topsirildi?utm_source=chatgpt.com
4. https://horseka.ru/media/finskaya-sauna/
5. https://www.hamam-m.ru/news/vse-o-hamame/hamam-idealnaya-tureckaya-banya-ot-a-do-ya.html